

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

Salayev Bobur Allanazarovich

“Elita-himoya” xususiy advokatlik byurosi rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17213575>

ANNOTATSIYA. "Davlat va huquq nazariyasi va tarixi" fani davlat va huquqning paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda turli davrlar va xalqlarda shakllangan huquqiy fikrlar, nazariyalar va ta'limotlar haqida o'rganadi. Bu fanlar huquqiy dunyoqarashni shakllantirish, jamiyatdagi huquqiy jarayonlarni tushunish va huquqiy davlatning mohiyatini anglash uchun muhimdir. Mazkur tezisda davlat va huquq nazariyasi fanining mohiyati va yuridik fanlardagi o'rni haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: huquqshunoslik, yuridik fanlar, Davlat va huquq nazariyasi, "davlat mohiyati", "davlat shakli", "davlatning tipi", "davlatning funksiyalari", "davlat mexanizmi".

THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL TEACHINGS

Salayev Bobur Allanazarovich

Head of the private law firm "Elita-Himoya"

ANNOTATION. The discipline "Theory and History of State and Law" studies the emergence and development of the state and law, as well as legal ideas, theories and doctrines formed in different eras and peoples. These disciplines are important for the formation of a legal worldview, understanding legal processes in society and understanding the essence of the legal state. This thesis discusses the essence of the discipline of the theory of state and law and its place in legal disciplines

Keywords: law, legal disciplines, Theory of State and Law, "essence of the state", "form of the state", "type of the state", "functions of the state", "mechanism of the state".

ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ЮРИДИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ

Салаев Бобур Алланазарович

Руководитель частной юридической фирмы «Элита-Химоя»

АННОТАЦИЯ. Дисциплина «Теория и история государства и права» изучает возникновение и развитие государства и права, а также правовые идеи, теории и доктрины, сформировавшиеся в разные эпохи и у разных народов. Эти дисциплины важны для формирования правового мировоззрения, понимания правовых процессов в обществе и сущности правового государства. В данной диссертации рассматривается сущность дисциплины «Теория государства и права» и её место в системе юридических дисциплин.

Ключевые слова: право, юридические дисциплины, теория государства и права, «сущность государства», «форма государства», «тип государства», «функции государства», «механизм государства».

KIRISH

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu fan barcha yuridik fanlar uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lib, u o'zida davlat va huquq rivojiga oid

eng muhim va umumiy qonuniyatlarni, asosiy tushuncha, atama va qoidalarini jamlaydi. Shu bois ushbu fan yuzasidan o'quv adabiyotlari, xususan, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, muayyan fanni o'rganishni boshlashda, avvalo, uning predmetini va o'rganiladigan obyektni aniqlash zarur. Davlat va huquq nazariyasi shaxs faoliyat doirasini ifodalab beruvchi fan sifatida o'z oldiga davlat va huquq hodisalarini, ularning jamiyatlardagi o'rni haqidagi fikrlarning obyektivligi borasidagi bilimlarni ishlab chiqish va uni nazariy jihatdan ma'lum bir tizimga solish vazifasini ko'zlaydi.

Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlari tizimida markaziy o'ringa ega. U yuridik fanlarning metodologik poydevorini tashkil etib, davlat va huquqning nazariy muammolarini o'rganadi. "Nazariya" so'zi "ko'rib chiqmoq", "tadqiq etmoq", "tahlil qilmoq" degan ma'nolarni anglatadi. "Nazariya" – keng ma'noda voqea-hodisalarning o'zaro aloqasi va qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi ilmiy bilim shaklidir. Tor ma'noda esa u yoki bu sohadagi bilimning asosiy g'oyalari, tushunchalari va qonunlari tizimidir.

Davlat va huquq nazariyasi – bu davlat-huquqiy hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va amal qilishini o'rganuvchi umumnazariy qonuniyatlarni haqidagi bilimlar tizimidir. Shu nuqtai nazardan, davlat va huquq nazariyasining predmetini quyidagicha izohlash mumkin:

Davlat va huquq nazariyasining predmeti – davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, harakatda bo'lishi (faoliyat ko'rsatishi) va istiqboli to'g'risidagi eng umumiy qonuniyatlarni.

Uning predmetiga faqat amaldagi davlat, huquq munosabatlari, jarayonlari, hodisalarning eng umumiy jihatlariga emas, balki ular haqidagi tasavvurlar ham kiradi.

Davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquq haqidagi qarashlar, g'oyalar, fikrlar va bilimlar tizimi bo'lib, u davlat-huquq hodisalariga tegishli bo'lgan umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, davlat va huquqni yaxlit institut sifatida ko'rib chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi fanining o'ziga xos xususiyatlari:

- davlat va huquq nazariyasi – ijtimoiy fan. Uning o'rganadigan sohasi muhim ijtimoiy hodisalar bo'lmish davlat va huquqdir;
- davlat va huquq nazariyasi – nazariy fan. U davlat va huquq taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarni ochib beradi;
- davlat va huquq nazariyasi – falsafiy xususiyatga ega bo'lgan fan;
- davlat va huquq nazariyasi – metodologik fan.
- yurisprudensiyaning barcha sohalarini huquqiy metodologiya bilan qurollantiradi;
- davlat va huquq nazariyasi – amaliyotga yo'naltirilgan fan.
- Yuridik amaliyotdagi bo'shliqlar, muammolar, ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish usullarini ishlab chiqadi, davlat va huquq rivojining yo'nalishlarini belgilab beradi;
- davlat va huquq nazariyasi – o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga molik fan.

Davlat va huquq nazariyasi fanida asosiy rolni umumiy tushunchalar bajaradi. Ushbu tushunchalar kategoriyalar deb yuritilib, bular qatoriga "davlat", "davlat mohiyati", "davlat shakli", "davlatning tipi", "davlatning funksiyalari", "davlat mexanizmi", "huquq", "huquqning mohiyati", "huquq shakli", "huquqiy munosabatlar", "huquq tizimi", "huquq normasi", "huquqiy ong", "huquqiy madaniyat" kabilarni kiritish mumkin.

Davlat va huquq hodisalari o'zaro mustahkam aloqada bo'lib, ular bir-birini ifoda etadi. Shuning uchun ham davlat va huquq nazariyasining barcha institutlari birgalikda o'rganiladi va ular uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Ta'kidlash joizki, davlat va huquq hodisalari alohida-alohida soha bo'lmasdan, balki u yagona fan hisoblanadi va nisbatan mustaqil bo'lgan ikkita qismga, ya'ni davlat nazariyasi va huquq nazariyasiga ajratiladi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning barcha jihatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, u ushbu hodisalarning umumiy va asosiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Davlat va huquq nazariyasi – davlat va huquqda o'z ifodasini topgan jamiyat rivojining obyektiv qonunlarini, ularning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini tushuntiradi, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning va huquqiy munosabatlar rivojlanish yo'nalishlarining butun bir mexanizmini ko'rsatib beradi.

XULOSA

Davlat va huquq nazariyasi fani o'z mohiyatiga ko'ra umumnazariy xususiyatga ega bo'lgan fundamental yuridik fan hisoblanib, u yurisprudensiya uchun umumilmiy mazmunga ega, shu bilan birga, mazkur fan boshqa yuridik fanlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu fan bo'lajak huquqshunoslarni davlat va huquqqa oid eng muhim nazariy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmay, balki ularning huquqiy ongi va madaniyati darajasini ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi fan talabalarga hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy voqeligi uchun zarur bo'lgan bilimlarni berar ekan, shu orqali u muhim ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy funksiyalarni ham bajaradi. Ushbu darslik nafaqat oliy ta'lim muassasalari talabalari, balki davlat va huquq hamda uning bugungi kundagi rivoji masalalari bilan qiziquvchilar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Odilqoriev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat, 2018. – B.13.
2. Ахмедшаева М. Давлат механизми ва ҳокимиятлар бўлиниши. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2005. – 66 б.
3. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / масъул муҳаррирлар Ҳ.Б.Бобоев, Ҳ.Т.Одилқориев. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000. – 528 б
4. Жавлиев Н.Б. Ҳуқуқнинг моҳияти: анъанавий ва замонавий назариялар. Ўқув-қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2010. – 96 б.
5. Нажимов М.К. Норма иждоқкорлиги. Дарслик. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 181 б.
6. Нажимов М.К. Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 66 б.